

DIALEKT VA STANDARD TIL O'RTASIDAGI ZIDDIYATLAR

Dadamatova Sabrina Sakenovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Sharq filologiyasi Filologiya va tillarni o'qitish: Turk tili 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dialekt va adabiy til o'rtasidagi ziddiyatlar, ularning jamiyatdagi o'rni va badiiy adabiyotdagi aksi tahlil qilinadi. Dialekt va standart tilning o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro munosabatlari yoritib beriladi. Shuningdek, badiiy adabiyot namunalarida dialekt va umumxalq tilning elementlari misollar asosida tahlil qilinadi. O'rganish natijasida dialekt va adabiy tilning bir-birini to'ldiruvchi birliklari ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: dialekt, adabiy til, jonli qatlam, milliy kolorit, umumxalq til, tilshunoslik, hududiy belgilar, organik

Аннотация. В данной статье анализируются противоречия между диалектом и литературным языком, их роль в обществе и отражение в художественной литературе. Рассматриваются специфические особенности диалекта и стандартного языка, а также их взаимосвязь. Кроме того, на примерах художественных произведений анализируется использование диалектных и общенародных языковых элементов. В результате исследования обосновывается, что диалект и литературный язык являются взаимодополняющими языковыми единицами.

Ключевые слова: диалект, литературный язык, разговорный слой, национальный колорит, общенародный язык, языкознание, территориальные особенности, органичность

Abstract. This article analyzes the contradictions between dialect and the literary (standard) language, their role in society, and their reflection in literary works. The specific features of dialect and standard language, as well as their interrelations, are examined. In addition, the use of dialectal and common language elements in literary texts is analyzed based on examples. The study concludes that dialect and the literary language are complementary linguistic units.

Keywords: dialect, literary language, colloquial layer, national color, common language, linguistics, regional features, organicity

Kirish. Til insoniyat taraqqiyotida muhim rol egallab, jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan tizimdir. U muloqot vositasi bo'libgina qolmay, yashayotgan davrning ijtimoiy, madaniy, va tarixiy tajribalarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Til rivojlangani sari jamiyat ham rivojlanadi. U insonlarning kundalik hayoti, turmush tarzi va madaniyatini aks ettiradi. Shu sababli til hamma joyda bir xil shaklda qo'llanilmaydi.

Asosiy qism. O'zbek tili chuqur tarixiy ildizlarga boy bo'lganligi uchun o'zi bilan birga turli dialektlarni ham vujudga keltirgan. Dialektlar tilning jonli qatlamini tashkil qilib, yashab turgan muhitdan kelib chiqib o'zgaradi. Aynan shu sabab bilan dialektlar so'zlashuv doirasida hududiy belgilariga ko'ra farqlanadi. Dialektlar tilni boyitib uning tabiiylik darajasini oshiradi. Til va dialekt o'rtasidagi jarayon doim murakkab va dolzarb masala holida ko'riladi.

Dialekt va adabiy til tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Dialektlar tilni jonlantirib, milliy kolorit yaratadi. Sodda qilib aytganda, dialektlar, xalqning jonli tili

bo'lib, u tilning organikligini saqlab turuvchi tilning ajralmas bir bo'lagidir. Dialektlar tilga rang-baranglik kiritib, adabiy til esa ko'proq umumxalq til hisoblanib, hamma foydalansa bo'ladigan, me'yorlashtirilgan rasmiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Umumxalq tili va dialektlar o'rtasidagi uzviy munosabatlarga qaraydigan bo'lsak, dialektlarning bazi belgilariga tayanib, adabiy til shakllanadi yoki aksiga til o'z xususiyatini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Bu kabi ziddiyatlar asosan, grammatika, talaffuz va leksik shakllarda namoyon bo'lmoqda. Dialektlarning adabiy til me'yorlariga mos kelmaslik oqibatida nutqda turli tushunmovchiliklar va tilni ajratish holatlari kuzatilmoqda.

Dialektlar va adabiy tilning o'zaro ta'sirini yaqqol badiiy asarlarda kuzatishimiz mumkin. Masalan Gofur Gulomning "Shum bola" asaridagi quyidagi parcha "Biz hali biror tuyaning tishini ko'rmasdan, biror otning yo'rigini bilmasdan, biror buqaga, bor baraka top, demasdan qo'y bozorning kunchiqar tomonidan g'ala-g'ovur janjal ko'tarilib qoldi. Ur... Sheshangdil, Kisabir, kisabir! Bozorğa uri aralabdi" [1, 24-25b]. Asarda dialekt elementlari asosan real hayotni tasvirlab kelgan. Jumladan "Ur, Kisabir!" kabi undovlar qahramonlar nutqining shevaga xos ekanligini, "bozorğa uri arabdil" so'zlari xalqano, shu muhitni yanada obrazli tasvirlashga hissa qo'shmoqda. Bu bilan birga yana bir asarga nazar solsak, Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida oddiy xalq va ziyolilar nutqi o'rtasida farqlar mavjud. Asarda Miryoqub bilam kechgan dialoglar alohida ajralib turadi. "O'zingiz aytasizki- dedi Miryoqub, -sizga "gah" deganda, qo'lgan qo'nadigan, tayyorgina qush bo'lsa.. Munaqa qo'lga qo'nmaydigan yovvoyi qushlarni ovlashga hunaringiz yo'q ekan" [2, 118b]. Bu suhbat ko'proq adabiy, umumxalq tilni aks ettirib, asarning qolgan qahramonlari bilan kechgan nutq ko'proq dialektlar va shevalarni namoyon qiladi. Asarning "Mayli, o'ynab yozilib kelinglar. Qish ichi yuraklarning g'ash bo'lgandir. Yosh narsalar!" [3, 6b] parchasida Zebining onasini yanada sodda, shevaga xos til sohibi ekanligini uning "yozilib kelinglar, yosh narsalar" kabi so'zlaridan bilib olishimiz mumkin. Badiiy asarlar orqali nafaqat dialektlar balki o'sha asardagi ijtimoiy muhitni aks ettiruvchi shevaga xos so'zlar ham muhim rol egallaydi. Bunga namuna o'laroq Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi "Senda nima yumushim bo'lsin, Ra'no. Har kungi o'zing bilan gap.. So'zlashib o'turarmiz, uzum to'kilsa, menga terib berarsan, deb chaqirgan edim. - Dadam xuftandan qaytib qoladi. Gapingiz bo'lmasa men ketaman. - Xuftan hali o'qulgon emas, azon hozir aytildi" [4, 57b] parchasida ham shevaga oid so'zlar hamda shu muhitni jonlanganligini guvohi bo'lamiz. Asardagi "o'turarmiz, xuftan, o'qulgon, chaqirgan" kabi dialektlar orqali xarakter yoritilmoqda. Bularning hammasi asarning badiiy ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til va dialekt munosabati har bir jamiyatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Til va dialekt doim bir-birini to'ldiradigan kuchdir. Dialektlar tilning eng katta boyliklari va tirik guvohidir. Har bir jamiyat, har bir shaxs o'z ona tilini asrashi, uning dialekt va shevalarini saqlab kelajak nasllarga sog'lom shaklda yeykazilishini ta'minlashi darkor. Ayniqsa badiiy adabiyotda dialektlarning qo'llanilishi obrazlarning va muhitning tabiiyligini ta'minlab, asarning hayotiy ekanligini bildirib turadi. Ushbu ikki til qatlamining o'zaro ta'siri tilning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, ularni qarama-qarshi emas, o'zaro uygun holda o'rganish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ofur G'ulom "Shum bola"- T;Sharq ,2004. 24-25b
2. Cho'lpon "Kecha va Kunduz".- T;Sharq,2000 118b
3. Cho'lpon "Kecha va Kunduz".- T;Sharq,2000 6b
4. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon"-T; G'.G'.N,1994 .57b